



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмони Ҷомий. Мунтахаби ғазалиёт. – Душанбе: “Адиб”, 2016, 480 саҳ.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 2000. – 616 б.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 4-жилд. – Тошкент: Фан, 2000. – 560 б.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 5-жилд. – Тошкент: Фан, 2000. – 544 б.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 2000. – 568 б.
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 16-жилд. – Тошкент: Фан, 2000. – 246 б.
7. Куръони карим. (Аловуддин Мансур таржимаси). – Тошкент: Чўлпон, 1993. – 540 б.
8. <https://m.ok.ru/group/51954966528095/topic/61517150418271>

SHARQ ADABIYOTINING YETUK TADQIQOTCHISI**Tozagul Matyoqubova***Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi***E-mail:** *tozagulmatyakubova71@gmail.com*

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/ZYFD7896

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr o'zbek she'riyatining zabardast namoyandasi, akademik G'afur G'ulomning «Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy» nomli maqolasi tahlilga tortilgan. Shoirning Sharq mumtoz adabiyoti va uning yirik vakillari hayoti va ijodiga bo'lgan munosabati o'rganilgan. G'ulomning sinchkov tadqiqotchi, manbashunos va matnshunos sifatidagi iqtidor va ulkan ilmiy salohiyati haqida muayyan nazariy umumlashmalar chiqarilgan. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi mustahkam ijodiy hamkorlik, samimiy do'stlikning ibratli jihatlarini misolida xalqlar do'stligining tarixiy-madaniy ildizlari ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar. *An'ana, badiiy mahorat, o'ziga xoslik, tadqiqot, ma'ruza, Sharq adabiyoti, ijodiy hamkorlik.*

ADVANCED RESEARCHER OF EASTERN LITERATURE

Abstract. *This article provides an analysis of the work of Gafur Gulyam, a prominent figure in 20th-century Uzbek poetry, focusing on his article "Abdurrahman ibn Ahmad Jami – The Great Poet and Thinker of the East." The study examines Gulyam's perspective on Eastern classical literature, particularly his exploration of the lives and works of its most significant representatives. The article also makes theoretical generalizations regarding Gulyam's remarkable scholarly contributions, highlighting his expertise as a meticulous researcher, source scholar, and textual critic. Additionally, the study delves into the historical and cultural roots of inter-people's friendship, using the strong creative cooperation and exemplary friendship between Abdurrahman Jami and Alisher Navoi as a case study to illustrate these enduring bonds.*

Keywords. *Tradition, artistic skill, originality, research, lecture, Oriental literature, creative cooperation.*

XX asr o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri G'afur G'ulomdir. U iste'dodli shoir, mohir nosir, yetuk tarjimon va adabiyotshunos sifatida adabiyotimiz tarixida katta o'rin tutadi.

Gʻafur Gʻulom Sharq adabiyoti namoyandalari ijodlarini sevib oʻrganishi va ulardan ijodiy taʼsirlanishi, oʻzini bu adabiy anʼanalar vorisi deb bilishi dastavval u tarbiya topgan oilaviy muhit bilan bogʻlanadi. Zotan, Gʻ.Gʻulom Sharq mumtoz adabiyoti bilan maktab yoshidayoq tanishishga musharraf boʻlgan. Shoir “Tarjimayi holi”da mahalla maktabida Bedildan “Maslak”ka oʻtib tugatganini aytadi. U otasi vafot etgan 1912-yil haqida soʻz yuritar ekan: *“Men 9 yoshda, kichik singlim Bahri 6 oylik edi... Men bu yoshda allaqachon savodim chiqqan, Navoiy, Hofiz, Saʼdiylarni bemalol oʻqir edim, chiroyligina xatim ham bor edi. Bunchalik tezfaahmlikni biz oʻqigan eski maktablardan kutish qiyin edi”* [Gʻ.Gʻulom. J.1.14 b.], – deya eʼtirof etadi. Garchi shoir zohiran “eski maktab”ni maqtashdan ehtiyot boʻlayotgan boʻlsa ham, botinan Sharq adabiyotiga mehr qoʻyishida “mahalla maktabi” va oila muhiti taʼsirini taʼkidlagan. Ayni paytda, keltirilgan iqtibosda oʻzida yoshlikdanoq tugʻma iqtidor, betakror qobiliyat, soʻz sanʼatiga mislsiz mehr-muhabbat, tezfaahmlik xislatlari boʻlganini ham ayon etgan. Demak, boʻlgʻusi shoir mahalla maktabidayoq oʻzbek tili bilan bir qatorda, fors va arab tillaridan ham yaxshigina savod chiqqan.

Gʻafur Gʻulom ijodiy merosi jahon adabiyotining koʻplab qalam ahllaridan bevosita va bilvosita taʼsirlanish, ular qoldirgan bebaho durdonalarga ijodiy munosabatda boʻlish asosida shakllangan va yuksalgan. Shoir Alisher Navoiydan lirik harorat olgan. Fuzuliyning oʻynoqi ohanglaridan taʼsirlangan. Bedilning mantiqiy teran falsafiy mushohadalariga, joʻshqin lirikasiga ergashgan. Umar Xayyomning falsafiy hikmatlari taʼsirida donishmandona fikr-mulohazalarini ifoda etgan. Firdavsiydagi sharqona gʻurur va epik koʻlamdorlik, Hofiz gʻazallaridagi hassoslik, Nizomiydagi olam hodisalarini koinot miqyoslari kengligida qamrab olish, Rudakiydagi chuqur samimiyat, xalqchillik, insoniy tuygʻular nafosati, Saʼdiyidagi ibratlilik, Jomiydagi ulugʻvorlik Gʻafur Gʻulom ijodiy merosi mohiyatiga mohirona tarzda singib ketgan.

Sharq adabiyoti anʼanalari Gʻafur Gʻulom asarlarining ruhi, ritmi, obrazli ifoda va mazmuniga singib ketgan. Shoir mumtoz adabiyotimizning vazn va shakllari, obrazlari, sheʼriy sanʼatlari, tasvir usullarini ijodiy oʻzlashtirgan. Binobarin, uning sheʼrlaridagi chuqur falsafiylik, romantik koʻtarinkilikka moyillik, insonparvarlik Sharq adabiyoti anʼanalari bilan chambarchas bogʻlanadi. Voqelikni badiiy tahlil etish, mavzu va gʻoyani falsafiy teran yoritishda ham shoir Sharq sheʼriyati va epik merosidan ijodiy oʻrgangan. Sharq adabiyoti va Gʻafur Gʻulom ijodiy merosining munosabati gʻoyat serqirra va nihoyatda koʻlamdor mavzu boʻlib, bizningcha uning bu boradagi faoliyatini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Sharq klassiklarining asarlarini bevosita oʻqib-oʻrganish.
1. Ular toʻgʻrisida ilmiy-tekshirish ishlarini amalga oshirish.
2. Maqolalar yozish va turli nufuzli anjumanlarda maʼruzalar oʻqish.
3. Salafning asarlarini nashrga tayyorlash.
4. Tarjimalarni amalga oshirish.

Koʻrinadiki, Gʻ.Gʻulomning Sharq mumtoz adabiyotiga boʻlgan cheksiz hurmat va sadoqati, ehtirom tuygʻusi butun ongli faoliyati davomida izchil va uzluksiz davom etgan. Chunki shoir Sharq adabiyotining asl maqsadi inson kamoloti uchun qaygʻurish, unda ezgu his-tuygʻularni kamol toptirish, poetik didini ilohiy yuksaklikka talpinish ruhida tarbiyalash, muazzam borliqdan hayrat uygʻotishdan iborat ekani yaxshi bilardi. Shuning uchun ham: *“Rudakiy va Xayyom, Saʼdiy va Hofiz, Jomiy va Navoiy, Lutfiy va Sakkokiy, Binoiy va Bobur kabi ulugʻ ajdodlarimiz insonda shunday olijanob*

xislatlar g'alabasiga umid bog'lab, o'z ideallarini yaratgan edilar" [G'.G'ulom. J.12. 77 b.], deb yozgan edi.

G'.G'ulom Sharq adabiyoti an'analari XX asr yangi o'zbek adabiyoti uchun muhim tajriba maktabi bo'lib xizmat qilishini amalda isbotladi. Milliy adabiy an'analarni ijodiy o'rganish badiiy ijodda yuksalishning ishonchli omili ekanini asosladi. O'z davri yosh ijod ahliga: *"Sharqning kattakon adabiyotini bilish...Sharq adabiyotini qunt bilan o'qish kerak"*ligini, aruzning ko'pgina vaznlari o'zbek tiliga mos kelishi, ularda bimalol yozish mumkinligini qayta-qayta ta'kidlashdan charchamadi [G'.G'ulom. J.12. 65-68 b.]. G'.G'ulom yosh ijodkorlar Sharq mumtoz adabiyotini puxta o'rganib, yuksak badiiy saviyada asarlar yaratishlari mumkinligiga ishonch bildirdi. Jumladan, vafotidan bir yil oldin, ya'ni 1965 yil 8-17-sentabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan yosh yozuvchilar seminar-kengashida G'afur G'ulom o'z ijodiy tajribasidan kelib chiqib, ularni Sharqning buyuk ijodkorlari: Sa'diy, Xorazmiy, Xayyomlarni qunt bilan o'qishga chaqirdi. Shundan so'nggina, rus klassik adabiyotini, Yevropa adabiyotini o'rganishni maslahat berdi. Adabiyotshunos A.Hayitmetovning quyidagi so'zlari fikrimizni tasdiqlashi jihatidan xarakterlidir: *"G'afur G'ulom o'zbek adabiyotini, xususan, uning mumtoz qismini umumiy katta Sharq adabiyotining bir bo'lagi deb qarar, o'zbek adabiyoti tarixini shu tarzda o'rganish tarafdori edi"* [Hayitmetov A. 56 b.], deb yozadi olim.

Adabiyotshunos S.Mamajonov haqli ravishda: *«O'zbek adabiyoti tarixida biror yirikroq ijodkor yo'qki, ular to'g'risida G'afur G'ulom yo u, yo bu darajada o'z fikr-mulohaza va bahosini aytmagan bo'lsin»* [Mamajonov S. 155 b.], - deb ta'kidlaydi.

G'afur G'ulom va Sharq adabiyoti masalasi kengqamrovli bo'lib, maqolada uning bitta ma'ruzasi tahlili misolida bu bebaho merosga ijodkor munosabatini yoritishga harakat qildik. Akademik G'afur G'ulom Abdurahmon Jomiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan Qobul shahrida o'tkazilgan xalqaro oliy anjumanda (1964 yil) *«Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy»* mavzusida nutq so'zlagan edi. Keyinchalik bu ma'ruza shoir "Mukammal asarlar to'plam"ining 11-jildidan o'rin olgan [G'afur G'ulom. T.11. 298-316 b.]. *«Men Sharq shoiriman. Shuning uchun Sharq klassiklarining hammasi mening xesh-aqrabolarim»*, - deb iftixor etgan shoir beqiyos farzandlik muhabbati va shavqiga to'lib, to'lqinlanib so'zlaydi. O'zining mumtoz adabiy meros va sharqona an'analari ruhida tarbiyalanganini ta'kidlaydi.

Jomiy ijodiy merosining qudrati, nozikta'blikdagi buyuklik xislati, insoniy falsafasi, asarlaridagi san'atkorlik va teran botiniy mazmunni chuqur his etgan G'afur G'ulom ulug' ustozdan she'riy mahorat sirlarini o'rgangan. *«...men hamisha uning tavsifi va ta'rifi andishasidaman, uning ustodligi oldida o'z shogirdligimni ojiz deb bilaman»*, - deya e'tirof etadi. Bu shunchaki ko'tarinkilik bilan aytilgan madh bo'lmay, balki Jomiy dahosining mavjud vasflaridan qoniqish sezmagani, uning beqiyos ko'lamini anglab yetgan, shu manbadan ma'naviy-ruhiy oziq olgan XX asr o'zbek faylasuf shoirining qalb amri bilan aytilgan dil so'zlari edi.

G'afur G'ulom ma'ruza muqaddimasidagi ta'rif va e'tiroflarga Zahiriddin Muhammad Boburning *«Boburnoma»* asaridan olingan quyidagi odilona ta'rif bilan yakun yasaydi: *«Mulloning janobi andin oliyroqdir kim, ta'rifqa ehtiyoji bo'lg'ay»*.

Ma'ruzachi shundan keyin *«XV asr adabiyoti va san'ati osmonida qo'sh-oftob»* Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'zaro munosabatlari misolida umuman, Jomiy va o'zbek adabiyoti masalasi xususida to'xtaladi. G'afur G'ulom badiiy adabiyotdagi ustoz-shogirdlik an'anasi, zullisonaynlik fonida Jomiy va Navoiy yaratgan asarlarning

manbalari, falsafiy asoslari xalq ijodidan oziqlanishiga diqqat qaratadi. Bu ulug' zotlar o'rtasidagi ajralmas do'stlik, o'zaro hurmat va muhabbat, hamdardlik va hamkorlik zaminida unib kuchga to'lgan samimiy qardoshlik munosabatlari, orzu-istaklar yaqinligi, intilish va oliy maqsadlar birligida ko'radi.

G'afur G'ulom uslubiga xos davr tarixiy sharoitiga murojaat qilib zamonlarni qiyoslash uslubi ushbu ma'ruzada ham kuzatiladi. Badiiy adabiyotdagi ikki tillilik tamoyili Hurosonning etnik tarkibini forsigo'y va turkigo'y xalqlar tashkil etganligi, zullisonaynlik ikkala xalq ijodkorlarining o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlaganligini ayrim misollar asosida eslab o'tadi. Mavlono Lutfiy va Jomiy do'stona ijodiy munosabatlari Alisher Navoiyning «*Majolis un-nafois*» tazkirasiga tayanib asoslanadi.

Ma'ruzachi Navoiy va Jomiy munosabatlari hijriy 873 [melodiy 1469]da boshlanib, hijriy 881-882 [m. 1477-1478]dan keyin yanada mustahkamlanganinin bayon etadi. Agar birinchi sana Navoiyning muhrdorlik mas'uliyatli vazifasiga tayinlanganligi, ikkinchisi esa navoiyning Jomiy boshchiligidagi naqshbandiya tariqatini qabul qilishi bilan bog'liqligini eslasak, ijtimoiy, diniy-tasavvufiy va adabiy hamkorlikka bois bo'lgan sabablar to'g'ri izohlanganligi oydinlashadi. Oralarida yigirma yetti yosh farq borligiga qaramasdan Jomiy va Navoiy o'rtasida bo'lgan samimiy do'stlik va ijodiy hamkorlikka buning monelik qilmasligi xususida so'zlar ekan G'afur G'ulom: «...u, shunday do'stlik ediki, jahon adabiyoti tarixida uning naziri kam topiladi», – deydi.

G'afur G'ulom keltirgan dalillar Jomiy va Navoiy o'rtasidagi ko'p qirrali va uzoq muddatli do'stlik munosabatlarining shakli, ifodasi bilan bog'liq qiziqarli lavhalarni kengroq, aniqroq tasavvur etish, ishonchli tarzda ko'rsatish imkonini beradi.

Ular o'rtasida ijodiy hamkorlikning vujudga kelishini ma'ruzachi har ikkala shoirning dunyoqarashidagi, g'oyaviy-estetik tamoyillaridagi yaqinlik, shoirlik burchi va adabiyot-san'atning vazifalarini tushunishdagi o'xshashlik, ideallaridagi monandlikda ko'radi. Jomiy o'git va maslahatlarining Navoiy tomonidan bajonu dil qabul qilinishi, Navoiyning istak va takliflaridan Jomiyning mamnun bo'lgani «*Xamsat ul-mutahayyirin*» singari samimiy do'st xotirasiga bag'ishlangan maxsus asardagi tarixiy faktlar asosida ko'rsatiladi. Navoiy ustozni «alar» deb ehtirom bilan e'zozlasa, o'zi haqida so'zlaganida «faqir» deya kamtarona maqomda turadi.

Jomiy g'azallarining «*Fotihat ush-shabob*», «*Vositat ul-uqd*», «*Xotimat ul-hayot*» qabilida uch devonga bo'linishi Navoiyning taklifiga ko'ra bo'lganidek, «*Xazoyin ul-maoniy*» dagi devonlarning har birisi «*bir ism bila mumtoz*», har qaysisi «*bir laqab bila jilvasoz*» bo'lishi Jomiyning taklifiga muvofiq bo'lgan. Bir-birining maslahat-u ko'rsatmalariga zo'r hurmat, ehtirom, o'tkir zehn, ulkan qobiliyat, bemisl iste'dodlariga e'tirofni ko'rgan G'afur G'ulom ularni «*biri biriga ustoz, bir-biriga shogird*», deb baholaydi.

G'afur G'ulom Jomiyning «*Sibhat ul-abror*», «*Yusuf va Zulayho*» asarlari xotirmasidagi Navoiy haqidagi mulohazalari, maktublaridagi ehtiromi, «*Layli va Majnun*»dagi madhlarga, «*Xiradnomai Iskandariy*»dagi yuksak baholarga tayanib fikr yurgizadi. Shu tarzda Jomiy Navoiyning insoniy xislatlaridan zo'r qoniqish hamda ruh olgani, ijodini yuksak baholaganligini ishonchli dalillaydi.

Ayni paytda ma'ruzachi Navoiyning e'tiroflariga, «*Xamsa*»ni «*nazar soldi, ochib, varaq bar varaq*» tanishib chiqqanligi, tahsinu duolar qilganligiga asoslanib, Jomiy Navoiy «*Xamsa*»si tilini tushungan, deb bimalol ayta olamiz,- degan xulosaga keladi.

Navoiyning ayrim turkona g'azallariga qofiya, radif va vaznni to'la saqlagan holda Jomiyning forscha nazira bog'laganligi dalilini keltirgan G'afur G'ulom ustozning g'azalni tushunmasdan turib unga nazira bog'lamasligi tayin ekanligini alohida uqtiradi. Chamasi bu bilan ham qanoatlanmaydi, shekilli Ye.E.Bertelsning haqli e'tirofini ham keltiradi: *«Jomiy o'zi o'qib chiqmagan (bo'lsa) Navoiy «Xamsa»siga bu qadar yuqori baho berishdan o'zini saqlar edi»*. Shu tarzda Jomiyning o'zbek tili va adabiyotiga bo'lgan katta hurmati, do'stona munosabatini keltirib chiqaradi.

Ma'ruzachi bu ikki mutafakkir tez-tez hamnishin bo'lib, maslahatlashib, ijodiy fikr almashib turganligini Jomiyning *«Haft avrang»* dostonlari ustida qizg'in ish olib borayotgan bir davrda Navoiyni ham *«Xamsa»* yozishga ruhlantirgani, ijodiy ishni tugatgan hamono shogirdning ustoz fikrini olishga oshiqqanligi bilan quvvatlaydi.

G'afur G'ulom Navoiy *«Xamsa»*sining birinchi, to'rtinchi va beshinchi dostonlari debochalarida Jomiyning aksariyat asarlari o'z davri she'riyati va ilmining eng go'zal namunalari sifatida baholanganligini eslatadi. Shuningdek, *«Xamsa»*ga kirgan hamma dostonlarda beistisno tarzda Jomiy madhiga maxsus boblar ajratilib, uning buyuk shoir, ulug' inson sifatida baholanganligini alohida ta'kidlaydi. Navoiyning *«Majolis un-nafois»*, *«Muhokamat ul-lug'atayn»*, *«Mahbub ul-qulub»* singari ko'pgina mashhur asarlari, lirik merosida Jomiy nomining hurmat va samimiyat bilan tilga olinishi G'afur G'ulomning sinchkov nigohidan chetda qolmaydi.

«Ularning ijodxonasi bir-biridan nur olardi», – deya ta'kidlagan ma'ruzachi Jomiy va Navoiy o'rtasidagi mustahkam ijodiy hamkorlik, insoniy yaqinlikni nazarda tutadi. Alisher Navoiyning ustozga bo'lgan cheksiz hurmati ifodalangan *«Xamsat ul-mutahayyirin»* asariga alohida to'xtalgan G'afur G'ulom undagi noyob fakt va dalillarning qimmatini yuksak baholaydi. *«Sharq adabiyotida birinchi bo'lib, Navoiy Jomiy ijodiyotining ulug'vorligini chuqur his etdi»*, – deganida ma'ruzachi to'la haqli edi.

Jomiy adabiy merosining ko'pgina o'zbek shoirlari, jumladan, Bobur, Muhammad Solih, Munis, Ogahiy, Muqimiylar uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qilganligidan so'zlagan notiq mazkur fikrni quvvatlash uchun *«Boburnoma»*da Jomiy nomi katta ehtirom bilan tilga olingani, XIX asrning mashhur shoiri Ogahiy *«Yusuf va Zulayho»*, *«Salamon va Absol»* asarlarini tarjima qilganligini dalil sifatida keltiradi. Shuningdek, Toshkentdagi G'ulomiya matbaasida *«Haft avrang»*, *«Sharhi mullo»*, *«Bahoriston»* asarlarining to'liq holda nashr etilganligi [1914-yil]ni qayd etadi.

Jomiyning nomini Gomer, Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy kabi jahon adabiyoti tarixidagi ulkan siymolar qatorida sanaydi. Purshukuh anjuman minbaridan turib: *«Jomiy faqat bir millatga xos shoir bo'lmay, barcha insoniyatga daxldor shoirdir... Biz o'zbeklar ham Jomiyni o'z shoirimiz deb bilamiz»*, – deb iftixor etadi.

Ma'ruzada ko'proq e'tibor Navoiy va Jomiy munosabatlarining mazmuniga qaratilgan, publitsistik pafos kuchli, o'zaro ijodiy hamkorlikning butun boblari batafsil tasvirlanmaganligi anjuman minbariga mo'ljallanganligi bilan izohlanadi. Shunga qaramasdan, XX asrning 70-yillari adabiyotshunosligi darajasidan, adabiyot-san'at oldida turgan vazifalar ko'lamidan kelib chiqilsa, ma'ruzaning keng va teran mazmuni tadqiqotchining salohiyatidan, izlanuvchanligi-yu asosli sharhlaridan, iqtidori va eng muhimi Jomiyg va Navoiya ehtiromidan guvohlik beradi.

Umuman, Jomiy va Alisher Navoiy ijodiy merosini teran o'rganish va targ'ib qilishga rag'bat bildirilgan purshukuh anjumanda so'zlangan nutqdagi fikr-mulohazalar bugungi kungacha o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamajonov S. Uslub jilolari. T. : Adabiyot va san'at, 1972
2. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015.pp. 40-43
3. Matyakubova T. R. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 120-122
4. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006. – 160 b.
5. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
6. G'afur G'ulom. Kechmish va kechirmishlarimdan [Avtobiografiya] // Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983
7. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.11. – T.: Fan, 1989
8. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.12. – T.: Fan, 1990.
9. Hayitmetov A. Mumtoz adabiyotimiz bilimdoni // Adabiy merosimiz ufqlari. – T., 1997.

IKKI TURKMAN HUKMDORI IJODI VA ALISHER NAVOIY

Nosir JO'RABOYEV,

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/OYLW7204

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlari ma'lumotlari asosida Qoraqo'yunli turkmanlar sultoni Jahonshoh hamda Oqqo'yunli turkmanlar hukmdori Sulton Ya'qublar ijodi haqida so'z yuritiladi. Ma'lumki, Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasining yettinchi majlisida temuriy shoirlar qatori ikki turkman sultoni ijodi haqida to'xtalib, ularning she'rlariga o'zining yuqori bahosini bergan.

Kalit so'zlar: Hukmdor shoirlar, zullisonayn shoir, Kamoliddin Binoiy, Qoraqo'yunlilar saltanati, Oqqo'yunlilar saltanati.

THE CREATION OF TWO TURKMAN RULERS AND ALISHER NAVAII

Abstract. This article examines the literary contributions of two prominent Turkmen rulers, Jahonshah of the Korakoyun Turks and Sultan Yaqub of the Akkoyun Turks, through the lens of the works of the great poet and thinker Alisher Navoi. In the seventh session of his Majolis un-Nafois, Navoi offered a critical commentary on the poetry of these Turkmen sultans, alongside that of various Timurid poets, and provided high praise for their literary achievements. The article explores how Navoi's assessments highlight the significance of these rulers in the context of Turkmen and Timurid literary traditions.

Keywords: Ruling poets, Zullisonayn poet, Kamoliddin Binoi, Karokoyun Empire, Akkoyun Empire.

Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, 1408-yil 21-aprelda Janubiy Ozarbayjondagi Sardrudda Qora Yusuf boshliq qora qo'yunli turkmanlar va Mironshoh rahbarligidagi temuriylar o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Jangda Mironshoh Mirzo halok bo'ladi hamda Qora Yusuf turkman g'alabaga erishib, Tabriz va butun Janubiy Ozarbayjonni egallaydi.

1410-yili Oq qo'yunlilar davlati sultoni Qora Usmon Sharqiy Anatoliyadan Arzinjonga – Qora Yusufga qarshi urush harakatlarini boshlaydi. Bundan foydalangan Ahmad Jaloyir Tabrizni egallab oladi. Qora Yusuf qo'shinini Anatoliyadan qaytarishga majbur bo'ladi. 1410-yil 30-avgust kuni Tabriz yaqinidagi jangda Ahmad Jaloyir

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimai xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622